

**BOLANING SHAXSIY RIVOJIGA OILADAGI EMOTSIONAL
IQLIMNING TA'SIRI**

Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya

yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oiladagi emotsional iqlimning bola shaxsining shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. O'zaro hurmat, mehr-muhabbat, muloqot va qo'llab-quvvatlashga asoslangan sog'lom emotsional muhit bolada ijobiy xarakter xususiyatlari, o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik va ruhiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, salbiy emotsional fon – ya'ni nizolar, sovuqlik, e'tiborsizlik, zo'ravonlik bolaning psixologik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada psixologik nazariyalar va amaliy tavsiyalar asosida oilaviy emotsional muhitni sog'lomlashtirish yo'llari yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Emotsional iqlim, oila muhiti, bola tarbiyasi, shaxsiy rivojlanish, psixologik xavfsizlik, ota-ona va bola munosabatlari, hissiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy faoliyat, ruhiy barqarorlik.*

Bola tarbiyasida oila eng muhim muhit hisoblanadi. Ayniqsa, oilaning **emotsional iqlimi** – ya'ni, oila a'zolari o'rtasidagi hissiy munosabatlar, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va muloqot uslubi bolaning ruhiy, axloqiy hamda ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi omildir. “Oiladagi emotsional iqlim” tushunchasi oiladagi a'zolar o'rtasidagi hissiy munosabatlar, ularning o'zaro muloqoti va ruhiy muhitini ifodalaydi. Bu iqlim oilaning umumiy ruhiy holatini, ya'ni oila ichidagi mehr-muhabbat, hurmat, ishonch, qo'llab-quvvatlash, shuningdek, nizolar, ziddiyatlar va sovuqlik kabi salbiy holatlarni o'z ichiga oladi. Asosiy jihatlari, ijobiy emotsional iqlim oilada ochiq muloqot, samimiylik, hurmat, mehr va qo'llab-quvvatlash bilan tavsiflanadi. Bunday muhitda farzandlar o'zlarini xavfsiz, qadrlangan va erkin his qiladilar. Salbiy emotsional iqlim esa doimiy tortishuvlar,

hissiy zo'ravonlik, sovuqlik va e'tiborsizlik bilan kechadi. Bu holat bolaning ruhiy salomatligiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oiladagi emotsional iqlim bolaning shaxsiy rivojlanishi, xulq-atvori, hissiyotlarni boshqarish va jamiyatda munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ota-ona va boshqa oila a'zolari bu iqlimni sog'lom va ijobiy saqlashga harakat qilishlari zarur.

Bolalarning shaxsiy rivojiga oiladagi emotsional iqlimning ta'siri mavzusini bir nechta mashhur psixologlar va olimlar chuqur o'rgangan. Jumladan, **Diana Baumrind** oilaviy tarbiya uslublarini o'rganib, emotsional iqlimning bolaning shaxsiy rivojiga ta'sirini tahlil qilgan. Uning nazariyasiga ko'ra, oiladagi tarbiya uslubi (avtoritar, demokratik, beparvo) bolaning xulq-atvori va shaxsiyati rivojida muhim rol o'ynaydi. **John Bowlby** esa bog'lanish nazariyasining asoschisi sifatida, u bolaning ota-ona bilan emotsional munosabatlari (ya'ni, bog'lanishi) uning ruhiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. **Urie Bronfenbrenner**ning ekologik tizimlar nazariyasi oilaviy muhit va emotsional iqlimning bolaning rivojiga qanday ta'sir qilishini kengroq ijtimoiy kontekstda ko'rib chiqadi. **Murray Bowen**ning oilaviy tizimlar nazariyasida emotsional iqlim va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning bolaning shaxsiy rivojiga ta'sirini o'rganadi. **Albert Bandura** esa ijtimoiy o'rganish nazariyasi asoschisi, oiladagi emotsional iqlim va ijtimoiy ta'sir orqali bolaning shaxsiyati va xulq-atvori shakllanishini tahlil qilgan.

Ota-onalarning bir-biriga, bolaga va tashqi muhitga bo'lgan munosabati, oiladagi hissiy barqarorlik yoki keskinlik bolaning ichki dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Emotsional iqlim – bu oila a'zolari o'rtasidagi hissiy holatlar majmuasi, ya'ni qanday kayfiyatda yashashadi, qanday muloqot qilishadi, bir-biriga qanday munosabatda bo'lishadi. Ijobiy emotsional iqlim belgilariga o'zaro ishonch va hurmat va ochiq va samimiy muloqot, qarorlarni birgalikda qabul qilish, hissiy qo'llab-quvvatlashni kiritish mumkin. Salbiy emotsional iqlim belgilariga esa, doimiy nizolar, tortishuvlar, sovuqlik yoki befarqlik, emotsional zo'ravonlik (masxara qilish, tahqirlash) va bola fikrini inobatga olmasliklar kiradi. Emotsional iqlimning bolaning shaxsiy rivojiga ta'sirida bola uchun oila — bu nafaqat yashash joyi, balki psixologik xavfsizlik manbai. Agar bu muhit sog'lom va qo'llab-

quvvatlovchi bo'lsa, bola o'zini qadrlaydi, mustaqil fikrlaydi, ijtimoiy faol bo'ladi. Ijobiy emotsional muhitda ulg'aygan bolada quyidagi xususiyatlar rivojlanadi va o'ziga va boshqalarga ishonch, samimiylilik, ochiqlik, jtimoiylashuv va muloqotga tayyorlik, stresslarga nisbatan barqarorlik yuz beradi. Salbiy emotsional muhitda esa bola quyidagi muammolarga duch kelishi mumkin bunda o'ziga ishonchsizlik, tashqi muhitdan qo'rquv, aggressivlik yoki haddan tashqari itoatkorlik, ruhiy zo'riqish va psixosomatik muammolar paydo bo'ladi. Psixolog J. Bowlbyning "bog'lanish nazariyasi"ga ko'ra, bola va ota-ona o'rtasida barqaror, mehrga asoslangan aloqaning mavjudligi bolaning butun umri davomida ruhiy sog'lomligini belgilaydi. Bunda ota-onaning muloqot uslubi va hissiy yondashuvida ota-onaning bolaning fikrini tinglashi, uni qadrlashi, jazodan ko'ra tushuntirishga urg'u berishi – oiladagi ijobiy emotsional iqlimni ta'minlovchi asosiy omillardandir. Ko'tarinki kayfiyatda, hazil-mutoyiba bilan bo'lgan muloqot bolani erkin fikrlashga undaydi. Tez-tez tanbeh berish, solishtirish va qoralash esa bolaning o'zini past baholashiga olib keladi. Emotsional iqlimni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga biz quidagilarni kiritamiz.

-Har kuni bolaning holidan xabardor bo'lish: "Bugun maktabda nima bo'ldi?", "Kayfiyating qanday?" deb so'rash.

-Birgalikda vaqt o'tkazish: o'yinlar, suhbatlar, sayrlar.

-Bolani faqat tanqid qilish emas, rag'batlantirish, yutuqlarini e'tirof etish.

-Ota-ona o'z hissiyotlarini boshqara olishi: asabiylashgan paytda bolaga salbiy energiya yuqtirmaslik.

-Oilada muloqot madaniyatini rivojlantirish: baqirmaslik, tinglay olish, so'z bermoq.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi emotsional iqlim — bu farzand tarbiyasida poydevor bo'lib xizmat qiladigan omildir. Sog'lom hissiy muhitda ulg'aygan bola – bu ijobiy xarakterga ega, o'ziga ishongan va jamiyatga foydali shaxsdir. Shu bois har bir ota-ona o'z oilasida mehr, tushunish va tinchlikni saqlash orqali farzandining sog'lom va baxtli bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I. Alqarov, R. Mamatqulova, X. Norqulov. Shaxs va Oila psixologiyasining pedagogikasi. Toshkent – 2009. 125 b.
3. Кулагина, И. Ю. Возрастная психология: развитие ребенка от рождения до 17 лет. / И. Ю. Кулагина. - М.: УРАО, 1999. - 175 с.
4. Jumayev, N.Z. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma / N.Z. Jumayev .- Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-252 b.